



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 18 - may

142-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 11-maydagi 296-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 15-apreldagi "Toshkent shahri tumanlarini har tomonlama rivojlantirish va islohotlar samaradorligini oshirish borasidagi vazifalar to'g'risida"gi AF-20-sonli farmoyishi hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 11-maydagi 296-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 15-apreldagi AF-20-sonli farmoyishi ijrosi haqida" 2023-yil 11-maydagi 296-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining mazkur farmoyishiga muvofiq:

Toshkent shahri tumanlarini har tomonlama rivojlantirish va joylarda islohotlar samaradorligini ta'minlash bo'yicha ishchi guruh tarkibi;

tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kichik ishchi guruhlar tarkibi;

ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning asosiy yo'nalishlari;

Toshkent shahri tumanlarini rivojlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi shtabi tarkibi tasdiqlanganligi;

Ishchi guruhlar o'z faoliyatida:

yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash;

sanoat va xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, bunda "korxonabay" ishlashni yo'lga qo'yish;

investitsiya jalb qilish ko‘lamini kengaytirish;

energiya tejamkorligiga erishish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish;

kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish;

mahalliy budjetning daromad manbalarini ko‘paytirish;

oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligini ta‘minlash, aholi uchun arzonlashtirilgan iste‘mol tovarlari va oziq-ovqat yarmarkalarini tashkil etish;

tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini va jamoat transportini rivojlantirish;

“mahallabay” ishlash tizimini samarali yo‘lga qo‘yish, bu borada sektorlar rahbarlarining faoliyatini jonlantirish, mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari va yoshlar yetakchilari faoliyati samaradorligini oshirish hamda “qizil” va “sariq” toifadagi mahallalar bilan alohida ishlash orqali ularni “yashil” toifaga o‘tkazish choralari ko‘rish;

mahallalarda jinoyatchilikni kamaytirish, aholi osoyishtaligini ta‘minlash maqsadida profilaktika inspektorlarining yangicha ishlash tizimini samarali joriy etish;

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va bandligini ta‘minlash;

aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, tibbiyotni raqamlashtirish va sifatini yaxshilash;

ta‘lim sifatini oshirish, xususan umumta‘lim maktablarida ikkita xorijiy til va bitta kasbga o‘qitish tizimini keng joriy etish;

uy-joy fondi va ijtimoiy soha ob‘ektlarida kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, yashil hududlar tashkil etish ishlarini amalga oshirish kabi dolzarb masalalarga alohida e‘tibor qaratish;

yuqorida qayd etilgan barcha yo‘nalishlarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida, majlis bayonlarida, Hukumat qarorlarida belgilangan topshiriklar ijrosi to‘liq ta‘minlanishiga ustuvor ahamiyat berilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (X.Tashpulatov, O.Fozilov), tuman mahallalaridagi muammolarni o‘rganishda va asosiy yo‘nalishlar doirasida hududlarda ishchi guruh a‘zolari va kichik ishchi guruhlar tomonidan ishlarni samarali yo‘lga qo‘yilishida amaliy yordam ko‘rsatilishi ta‘minlansin.

4. Tuman sektor rahbarlari va tuman hokimining o‘rinbosarlari boshchiligida tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha kichik ishchi guruhlar joylarda olib borilayotgan ishlarni tashkillashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi faoliyatini tashkil

etsinlar.

5. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (N.Hakimova), ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi turmush darajasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi xolis va to'liq ma'lumotlarni keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazilishi tavsiya etilsin.

6. Yangihayot tumani hokimining "Toshkent shahar hokimining 2022-yil 13-dekabrda 1264-14-0-Q/22-sonli qarori ijrosi to'g'risida" 2022 yil 16 dekabrda 539-14-220-Q/22-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari X.Tashpulatov va O.Fozilov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**